



ResearchGate



SEMANTIC SCHOLAR



IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245



VOLUME 7, ISSUE 2, 2023

## O'SMIR QIZLARDA BACHADON VA QIN ANOMALIYALARINING UCHRASH CHASTOTASINI VA XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

Axmadjonova Odina Davronali qizi

Magistr

Asranqulova Dilorom Baxtiyarovna

Ilmiy raxbar

**Dolzarbliji.** Ayol jinsiy a'zolarining rivojlanishidagi anomaliyalar muammosi doimo shifokorlar - pediatrlar, ginekologlar, jarrohlar, psixiatrlarning diqqat markazida bo'ladi, chunki ular hayz va reproduktiv tizimning turli xil buzilishlariga olib keladi va ko'pincha jamiyatdagi shaxsning o'z o'rmini yo'qotishi tufayli o'z joniga qasd qilishga urinishlarga sabab bo'ladi.

Qizlarda jinsiy a'zolarning turli xil malformatsiyalari orasida bachadon va qin anomaliyalari eng ko'p uchraydi.

Balog'atga yetgan davrida namoyon bo'uvchi hayz ko'rish qonining to'liq yoki qisman kechikishi bilan bog'liq malformatsiyalar adabiyotlarda kamroq tasvirlangan, garchi bu turdagি nuqsonlar eng og'ir klinik ko'rinishga ega va o'z vaqtida e'tiborni talab qiladi.

**Maqsad.** Bachadon va qin anomaliyalarining namoyon bo'lishi va klinik xususiyatlarini o'rganish, uchrash chastotasini aniqlash.

**Vazifa.** 1. Bolalik va o'smirlik davridagi ginekologik bemorlarda bachadon va qin nuqsonlarini uchrash chastotasi va strukturasini aniqlash.

### Tadqiqot natijalari va ularning muxokamasi.

Tashqi jinsiy a'zolar ayollarga xos rivojlangan ichki jinsiy a'zolar anomaliyasi bor bemorlarning jismoniy va jinsiy tug'ma rivojlanish anomaliyalar xususiyatlarini o'rganib chiqish ushbu bemorlarda anomaliyalar turidan qat'iy nazar jismoniy taraqqiyot sog'lom qizlar jismoniy taraqqiyotidan farq qilmasligini ko'rsatdi. Jinsiy a'zolar aralash tuzilishga ega bo'lgan bemorlar guruxida jinsiy tug'ma rivojlanish anomaliyalari erta boshlanganligi belgilardan qovdag'i ikkilamchi tuklanish chaqaloqlik davridanoq paydo bo'lganligi adrenogenital sindromi bor bemorlarda 66,7% aniqlandi, testikulyar feminizasiya sindromi bemorlarda jinsiy taraqqiyot 11,1% orqada qolganligi aniqlandi.

35 nafar bemor ginekologik tekshirildi, bunda barcha bemorda tashqi jinsiy a'zolar ayollarga xos rivojlanganligi aniqlandi. 21 bemorda kirish yopiq – ya'ni «gimen butunlay yopiq». 5 nafar bemorda qin rudimenti bo'lib uning uzunligi, zond bilan tekshirilganda, 1,5-2 sm, yetti nafar qizda ilgari genitaliy soxasida operatsiya qilingan bo'lib qin uzunligi 2-5 smga teng va qin gumbazi yopiq holda chandiqlar aniqlandi. Rektoabdominal tekshirishda anusdan 2-8 sm masofada o'lchamlari har xil bo'lgan xosila paypaslandi – 4 nafar bemorda bachadon o'lchamlari bemor yoshiga xos bo'lib, 31 – bemorda bachadon kattaligi 5x6 smdan to 18 xafjalik xomiladorlikdagi kabi kattalikda paypaslandi.



Paypaslangan xosila uchida bachadon ekanligi 18 nafar bemorda differnsiatsiya qilindi. Ortiglar soxasida 6 nafar bemorda uzunchoq xosila – gematosalpinks paypaslandi.

BQA bor bemorlar tana tuzilishi normal bo'lib, ulardan bir kishida semizlik, ikki nafar bemorda suyak tuzilishida mikroanomaliyalar, uch bemorda – son soxasida pushti rang striyalar (chiziqlar) va besh nafar bemor yuzida acne vulgaris aniqlangan.

Ginekologik tekshirishda barcha bemorlarda tashqi jinsiy a'zolar ayollarga xos rivojlananligi aniqlandi. 7 (16,25%) bemorda tashqi teshik meyordanan anusga yaqin pastda joylashgan.

Qinga kirish daxlizi ikki xil tuzilishiga ega bo'lган: 5 (6,3%) bemorda «gimen butun» bo'lib, qolgan bemorlarda gimen normal tuzilishga ega bo'lsa-da undan ichkariga uzunligi 0,5-5 santimetrlrik rudimentar qin aniqlangan.

Shunday qilib BQA bor bemorlar uchun mo'tadil jismoniy rivojlanish hamda mo'tadil jinsiy farq bor bo'la turib, birlamchi amenoreya xarakterlidir. 1-guruxdagi bemorlar vrachga murojaat qilgan vaqtidagi jinsiy rivojlanish darajasi Ma2,5Ax3R3 formulasiga xos bo'lib, bunday bemorlarga davriy gormonal terapiyaning noeffektiv va befoydaligidan dalolat beradi.

2 guruxdagi FBQA bor bemorlarning tana tuzilishi to'g'ri bo'lib, faqat bir 15 yoshli qiz bolada erkaksimon tana tuzilishi aniqlandi, ikki nafar astenik turda bo'lib tana vazni defisisi aniqlandi. Uch nafar qiz qorin devorida jarroxlik amaliyot keyingi chandiqlar (1-3ta) aniqlandi; ikki bemor yuzida – acne vulgaris aniqlandi, uch nafar bemorning son soxasida va dumbalarida pushti rang striyalar aniqlandi, uch bemorda boshqa a'zolar anomaliyasi chunonchi, chanoq -son bo'g'imi displaziysi bir bemorda, umurtqa pog'onasi qiyshayishi bemorda kuzatildi.

V.N. Demidov (1990) ning UTT da ko'rsatib berilgan gematokolpos, gematometra, ba'zan gematosalpinks kabi ko'rsatkichlarga ko'ra anomaliya turini aniqlab bo'lmaydi, degan fikriga biz qo'shila olmaymiz. Qin pastki qismi va 2-3 qismi aplaziyasi bor bemorlarni UTT da gematokolpos uzunligi, uning eni har ikki xil nuqsonda bir biridan farq qilishini yaqqol aniqlab oldik (jadval).

jadval.

Qin qisman atreziyasida gematokolpoksning UTT dagi o'lchamlari.

Aplaziya darajasi	Gematokolpos o'lchamlari (sm)		
Qin aplaziysi uzunligi	Uzunligi	Orqa – oldin devori	Eni
Qin plastik 1/3 qismi aplaziysi n=28	11	1.5-2	1.7
Qin pastki va o'rtal qismi aplaziysi n=14	7	1.2-1.5	1.5

Jadvaldagagi ma'lumotdan ko'rinish turbdiki gematokolpos uzunligi 11 sm va undan ko'p bo'lsa qin pastki 1/3 qismi aplaziyasi, agar 7sm va undan kam bo'lsa qinning yarmi yoki 2/3 qismi aplaziyasi bo'ladi. Ushbu ma'lumotlar kasallikning klinik kechishi va ginekologik tekshirishda aniqlangan



ResearchGate



SEMANTIC SCHOLAR



IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245



TOGETHER WE REACH THE GOAL

VOLUME 7, ISSUE 2, 2023

ma'lumotlarga mos keladi. Bulardan tashqari UTT ikki tomonlama kontrast usulida siyidik pufagini to'ldirgan xolda bemor qiniga **gegar** kengaytirgichlarining katta o'lchamlaridagini kirg'izib aplaziyaning soxasi, umumiy uzunligi aniqlandi.

Shunday qilib, myuller yo'llari rivojlanishi nuqsonlari bor bemor o'smir yoshdag'i qizlarda siyidik ajratish tizimi funksional xolatini o'rganish juda muxim axamiyatga ega bo'lib ushbu bemorlarining 2 va 4 guruxga qarashli qizlarda jarroxlik amaliyoti reproduktiv faoliyatni asrash imkoniyatini beradi. Bulardan tashqari, nefrolog va urolog nazorati shart o'smir qizlarni alohida, xomiladorlikka mutloq qarshi ko'rsatmasi bor o'smir qizlarni aloxida guruxga ajratish xam o'rta muhim sanaladi (ayniqsa yagona buyrakning funksional imkoniyati pasaygan xollarda).

**Xulosa.** Yuqorida aytilganlardan, xulosa qilish mumkin-ki jinsiy a'zolarning tug'ma rivojlanishi anomaliyasi bilan tug'ilgan qizlar nefrourologik patologiya bo'limini mumkin bo'lgan yuqori xavf guruxiga kiradilar.

Jinsiy tug'ma rivojlanish nuqsonlari mavjud bemorlarda bir vaqtning o'zida boshqa a'zolar va tizimlarda nuqsonlar mavjudligi shuni yaqqol ko'rsatadi-ki, ushbu nuqsonlarning asosiy sababchisi yagona bir omildir, faqat bu omil embrional davrning xar xil muddatlarida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

### Adabiyotlar

1. Adamyan L. V., Kulakov V. I., Xashukoeva A. Z. Пороки развития матки и влагалища. -М.: Медицина, 1998. –С. 326.
2. Aylamazyan E.K. Антенатальная диагностика и коррекция нарушений развития у плода и новорожденного //Российский вестник перинатологии и педиатрии. -1999. -№3. –С. 6 -11.
3. Aliyeva D. A. Влияние некоторых показателей репродуктивного здоровья женщин Узбекистана на формирование врожденных пороков развития плода: Автореф. дис. ... д-ра мед. наук. -Ташкент, 2003. –С.35.
4. Alimbayeva G. N. Тактика ведения девочек пубертатного возраста с пороками развития матки и влагалища //Акуш. и гинек. -М., 1992. -№3. -С. 12-14.
5. Atxamova Z. M., Eltazarova G. Sh. Homilaning tug'ma rivojlanish hnuqsonlari bilan dunyoga kelish epidemiologiyasi haqida //Проблемы биологии и медицины. -2003. -№1. (28). –С. 90-93.
6. Barnoqulov O. M., Negmatjanov B. B., Axmedov Y. M. Ранняя диагностика аплазии влагалища //Вестник врача общей практики. –Samarqand. 2003. - №3. - С. 314-316.
7. Berdiyev A. K., Negmatjanov B. B., Barnoqulov O. M. Реалии и перспективы совершенствования охраны репродуктивного здоровья девочек-подростков VI съезд акушеров-гинекологов Республики Узбекистан //Журн. Вестник врача общей практики. – Ташкент, 2003. -Спец. выпуск. -С. 315-317.